Universitet Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi majlisi 9-sonli
bayonnomasiga
7-ILOVA

Mazkur nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar:
Universitet Kengashining 2026-yil 11-sentabrdagi 3-sonli bayonnomasining 1-ilovasi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarini sifatni ta’minlash jarayoniga jalb etish haqida
NIZOM

Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid qonunchilik hujjatlari va Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan. Nizom Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarini universitetda sifatni ta’minlash jarayonidagi ishtirokiga doir munosabatlarni tartibga soladi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarini sifatni ta’minlash jarayoniga jalb etish haqidagi nizom (keyingi o‘rinlarda − nizom) Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda − universitet) talabalarini universitetda sifatni ta’minlash jarayoniga jalb etishning prinsiplari va ta’lim dasturi darajasidan universitet miqyosigacha bo‘lgan bo‘ginlarda sifatni ta’minlash bilan bog‘liq jarayonlarda talabalarning ishtirokini ta’minlashga qaratilgan qoidalarni o‘rnatadi.

Nizom universitetning tarkibiy va kollegial tuzilmalari, talabalar birlashmalari va xodimlarining talabalarning sifatni ta’minlashdagi ishtirokiga doir majburiyatlari hamda talabalarning sifatni ta’minlashdagi ishtirokiga taalluqli mexanizmni belgilab beradi.

2. Nizom talabalarga sifatni ta’minlashda ishtirok etish orqali ta’lim olish jarayonini takomillashtirishga hissa qo‘shishga keng imkoniyat yaratib beradi. Bu rasmiy tarzda Talabalar assotsiatsiyasi faoliyatida ishtirok etish, talabalarning vakilligi orqali, shuningdek ta’lim dasturlari va modullarning o‘qitilishini talabalar tomonidan baholash, shuningdek universitet kengashlari va komissiyalari, tegishli qo‘mitalar faoliyatida hamda so‘rovlarda ishtirok etish orqali amalga oshiriladi.

3. Nizomda nazarda tutilgan tegishli qoidalar oliy ta’limdan keyingi ta’lim bo‘yicha ta’lim oluvchilar uchun ham qo‘llanadi.

4. Mazkur nizom qoidalarini to‘liq tushunib yetish universitetning sifatga nisbatan kompleks va yaxlit yondashuvning tarkibiy qismini tashkil etuvchi boshqa hujjatlar bilan tanishib chiqishni talab etadi.

II bob. Asosiy tushunchalar

5. Universitet xalqaro miqyosda oliy ta’limda talabalarning faolligi (student engagement)ni ta’minlash tushunchasiga nisbatan yagona ta’rif mavjud emasligini e’tirof etadi.

Ayni vaqtda talabalarning faolligini ta’minlash tushunchasiga berilgan ta’riflar va yondashuvlarda ikki jihat, xususan, talabalarning ta’lim olishiga nisbatan motivatsiyasini oshirish hamda talabalarning ta’lim olish jarayonini yaxshilash maqsadida ularning sifatni ta’minlash jarayonlarida ishtirok etishi nazarda tutilishini inobatga oladi.

Universitet yuqorida qayd etilgan ikki jihatning muhimligini tan oladi. Biroq ushbu nizom talabalarning ta’lim olish jarayonini yaxshilash maqsadida ularning sifatni ta’minlash va oshirsh jarayonlaridagi ishtirokini nazarda tutadi. Talabalarning ta’lim olishiga nisbatan motivatsiyasini oshirish va universitetning ta’limga nisbatan yondashuvi Ta’lim olish, o‘qitish va assessment strategiyasida tartibga solinadi.

Shunga binoan nizomda quyidagi tushunchalardan foydalanadi:

Talabalarning sifatni ta’minlashdagi ishtiroki − ta’lim olish jarayonining yanada yaxshilanib borishiga, talabalar jamiyati, universitet va oliy ta’limga manfaat keltirishga qaratilgan talabalarning sifatni ta’minlash va oshirish jarayonida universitetning hamkori sifatidagi ishtiroki.

Talabalarning vakilligi− universitetning tegishli strukturasi kesimida talabalarga fikr-mulohaza bildirish va muhokama qilish kerak bo‘lgan muammoli sohalarni yetkazishlariga imkon beradigan tizim.

Qayta aloqa (feedback) sikli −talabalar, talabalar vakillari tomonidan yetkaziladigan fikr-mulohazalarni tinglash, ular yuzasidan chora ko‘rish va fikr-mulohaza yuzasidan javob qaytarish jarayoni.

O‘quv rejadan tashqari mashg‘ulotlar −bevosita o‘quv rejada nazarda tutilmagan va uni to‘ldirishga qaratilgan talabalar uchun mo‘ljallangan tadbirlar, dasturlar va loyihalar.

Talabalarning sifatni ta’minlashdagi ishtiroki bilan bog‘liq qo‘shimcha tushunchalarga ta’riflar boshqa hujjatlar, xususan, Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqida nizom hamda Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qitish, ta’lim olish va assesment strategiyasida berilgan.

III bob. Talabalarning sifatni ta’minlashdagi ishtirokiga doir prinsiplar

6. Universitet talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlari, o‘qitish va ta’lim olishni talabaga yo‘nalgan tarzda tashkil etish, talabalarning ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammolar, ehtiyojlar va qoniqish darajalarini aniqlash, muhokama qilish va hal etish uchun ular bilan hamkor sifatida ishlashni muhim deb hisoblaydi. Shu bois universitet talabalar tomonidan bildiriladigan fikr-mulohaza (feedback)ni yig‘ish va ularni ko‘rib chiqish jarayonida talabalarning turli toifaga mansubligini hurmat qiladi va bunga alohida e’tiborini qaratadi.

Universitet ta’lim dasturlarini ta’lim oluvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarni muntazam tarzda jalb etgan holda qayta ko‘rib chiqadi. Bunday yondashuv hammaga mos keladigan yagona talabaning tajribasi mavjud emasligini anglatadi.

7. Talabalarning sifatni ta’minlash jarayonlarida ishtirokini ta’minlashga nisbatan yondashuvi quyidagi prinsiplarga asoslanadi.

Barcha talabalarga fikr-mulohaza bildirishga imkon berish. Barcha talabalarga talabalar vakili bo‘lish va fikr-mulohaza (feedback) bildirishda teng imkoniyat beriladi. Universitet ta’lim olish jarayonini yaxshilab borish maqsadda talabalarga hamkor sifatida munosbatda bo‘lishga erishish uchun har bir talaba o‘z ovoziga ega ekanini kafolatlaydi.

Rivojlanishga intilish. Talabalardan fikr-mulohaza olishdan maqsad keng tatbiq etish mumkin bo‘lgan ijobiy tajribalar amal qilayotgan sohalarni, shuningdek takomillashtirish kerak bo‘lgan sohalarni aniqlash va atroflicha tahlil etishdan iborat.

Talabalar bilan hamkorlikda qayta aloqa mexanizmlarini yaratish. Talabalarning sifatni ta’minlashdagi faolligi hamda erkin, haqqoniy va obyektiv fikr-mulohazalarini bildira olishlariga erishish ular bilan hamkorlikda fikr-mulohaza bildirish usullari ishlab chiqiladi va qo‘llanadi. Talabalarga fikr-mulohaza bildirishga bo‘lgan imkoniyatlar oldindan ma’lum qilinadi.

Talabalar vakilligi va talabalar fikr-mulohazalarini qadrlash. Talabalar vakilligi va talabalarning fikr-mulohazalari qadrlanadi. Fikr-mulohazalar kuchli taraflarni e’tirof etish va ayni vaqtda muammolarni aniqlash va keng muhokama qilish imkonini beradi. Konstruktiv fikr xodimlar, tarkibiy tuzilmalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan ijobiy qabul qilinib, unga universitet faoliyatini takomillashtirish imkoniyati sifatida munosabatda bo‘linishi zarur.

Etika qoidalariga rioya etish. Fikr-mulohazani bildirishda insonning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish talab etiladi. Fikr-mulohaza almashish mexanizmi universitetda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilingan holda tashkil etiladi va fikr-mulohazalar ushbu standartlarga rioya qilingan holda beriladi. Talabalar tashqi ta’sirdan holi tarzda fikr-mulohazalarni erkin bayon etadilar.

Ochiqlik. Fikr-mulohazalar yig‘ilganda u nima uchun olinayotgani, ular asosida nimalar qilinishi, ulardan qanday foydalanish va kimlar foydalanishi haqida ma’lumotlar berilishi kerak.

Fikr-mulohazalarni ko‘rib chiqish va ularga javob berish. Olingan fikr-mulohaza, u asosida qilingan xulosalar, tegishli hollarda, ko‘rilgan choralar va buning sabablari talabalaraga yetkaziladi. Bildirilgan fikr-mulohaza to‘g‘ridan to‘g‘ri tizimga o‘zgartirish kiritish yoki muayyn chora ko‘rishga olib kelmasligi mumkin. Biroq, doimo samarali qayta aloqa siklining tarkibiy qismi sifatida muayyan javob yoki tushuntirish berishga olib keladi.

IV bob. Tarkibiy tuzilma va xodimlarning sifatni ta’minlash jarayonida talabalarning ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq vazifa va majburiyatlari

8. Universitet xodimlari talabalar sifatni ta’minlash jarayonida samarali ishtirok eta olishlari uchun zarur asoslar, infrastruktura va muhitni yaratishga mas’uldirlar. Bu mazkur nizomda belgilangan prinsiplarga muvofiq holda faoliyat olib borish va talabalarning ishtirokiga doir turli mexanizmlarning samarali ishlashini kafolatlashni o‘z ichiga oladi.

9. **Yoshlar masalari va sportni ommalashtirish boshqarmasi** talabalar vakilligi haqida boxabarlikni oshirish va Talabalar assotsiatsiyasini qo‘llab-quvvatlash hamda unga tashkiliy masalalarda ko‘maklashish, hamkorlikda talabalar vakillari saylovini tashkil etish orqali universitetda talabalar vakilligini rivojlantirishga ma’suldir.

10. Talabalar assotsiatsiyasi o‘zidan quyi talabalar vakilligi tizimini rivojlanitirishga mas’uldir.

Talabalar assotsiatsiyasi talabalarning vakillariga doir ma’lumotlar bazasini talabalar vakillarini o‘qitish va ma’muriy ishlar bilan bog‘liq maqsadlarda saqlaydi.

Talabalar assotsiatsiyasi universitet xodimlari bilan talabalar vakillariga treninglar o‘tkazish va tizimni boshqarishda hamkorlik qiladi.

11. Talabalar vakillari talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘adilar. Talabalarning fikr-mulohazalari turli usullarda, shu jumladan, so‘rovlar o‘tkazish, fokus guruhlar bilan muloqot qilish, ijtimoiy tarmoqlar va yuzma-yuz uchrashuvlar va boshqa usullar orqali olinadi.

Talabalar vakillari uchun o‘tkaziladigan treninglarda talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘ish va ulardan foydalanish tartibi bo‘yicha yo‘nalishlar beriladi.

12. Dekanlar, professor-o‘qituvchilar va xodimlar ushbu nizom talablariga rioya qilgan holda faoliyat olib boradilar hamda talabalarning fikr-mulohazalari tegishlicha ta’lim dasturi, Sho‘ba va fakultet miqyosida ko‘rib chiqilishini ta’minlaydilar.

Fikr-mulohazalar tizimini universitet tomonidan markazlashgan tartibda yig‘iladigan talabalarning fikr-mulohazalari, talabalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri individual murojaati asosida to‘plangan fikr-mulohazalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri talabalar yoki ularning vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar fikr-mulohazalardan iborat.

13. Mazkur nizom talabalarning sifatni ta’minlash jarayonida ishtirok etishiga doir minimal talablarni belgilab beradi va ularga rioya qilinishi shart.

Ayni vaqtda dekanlar va professor-o‘qituvchilar tegishli fakultetga aloqador masalalar yuzasidan talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘ishning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish va joriy etishlari mumkin.

14. Tarkibiy tuzilma va xodimlarning sifatni ta’minlash jarayonida talabalarning ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq vazifa va majburiyatlarining batafsil ro‘yxati mazkur nizomning 1-ilovasida berilgan.

V bob. Talabalarning sifatni ta’minlashda ishtirok etish mexanizmi

15. Universitetda talabalarning vakilligi tizimi talabalarga universitetning hamkori sifatida mazkur nizom bilan o‘rnatilgan prinsiplarga asosan ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, muhokama etish va hal qilish yuzasidan o‘z qarashlarini ifoda etish imkonini beradi.

Bu tizim orqali talabalarning vakillari talabalarning ehtiyojlari va ta’lim dasturlari hamda universitet hayoti bilan bog‘liq tajribalaridan mamnunlik darajasiga doir fikr-mulohazalarini yetkazadilar.

16. Talabalar vakilligi tizimi quyidagi darajalarda tashkil etiladi:

Talabalarning universitet darajasidagi vakilligi. Talabalar assotsiatsiyasi universitetda talabalarning oliy vakillik organidir. Talabalar assotsiatsiyasidan talabalarning hayoti bilan bog‘liq masalalarda doimiy maslahat olinadi. Talabalar assotsiatsiyasining saylangan boshqaruvchilari universitet xodimlari bilan hamkorlikda talabalarning boshqa saylangan vakillariga treninglar o‘tkazadilar, yo‘nalishlar beradilar hamda qo‘llab-quvvatlaydilar.

Talabalarning fakultet va sho‘ba darajasidagi vakillari. Talabalar o‘zlari tahsil olayotgan fakultet va kurs talabalari orasidan talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘ish hamda talabalar bilan fakultet, Sho‘ba o‘rtasida vositachi vazifasini bajaruvchi talabalar vakillarini saylaydilar.

Talabalarning fakultet va sho‘ba darajasidagi vakillari tegishli fakultet va talabalar qo‘mitasiga a’zo talabalarning soniga mutanosib tarzda saylanadi.

Talabalarning vakillari saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Talabalar assotsiatsiyasi va universitet xodimlaridan iborat tarkibda komissiya tuziladi.

Talabalar vakilligi uchun o‘z nomzodini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan talabgorlar komissiyaga motivatsiya xati taqdim etadilar.

Odob-axloq kodeksida nazarda tutilgan rasmiy muloqot me’yorlarini buzish yoki g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etish natijasida intizomiy jazo chorasi qo‘llangan

talabgorlarga nomzod sifatida ro‘yxatga olish rad etiladi. Shuningdek, kelgusida shunday xatti-harakatlarni sodir etish natijasida intizomiy jazo chorasi qo‘llangan talabalar talabalarning vakillari safidan chetlashtiriladi.

Saylov har o‘quv yilining oktabr oyi birinchi o‘n kunligida onlayn ta’lim platformasida o‘tkaziladi

Saylov bakalavr bosqichida fakultet miqyosida ta’lim dasturi va kurslar kesimida, magistratura bosqichida ta’lim dasturlari kesimida o‘tkaziladi.

Har bir talaba bitta ovozga ega.

Ovoz berish natijalariga ko‘ra bakalavr bosqichida har bir fakultet va kurs kesimida boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovoz olgan uch nafargacha nomzod saylangan deb hisoblanadi. Magistratura bosqichida ta’lim dasturi bo‘yicha boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovoz olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi.

Nomzodlar o‘rtasida ovozlar soni teng bo‘lib qolgan hollarda fakultet kengashi tavsiyasi asosida qo‘shimcha vakillar saylanishi mumkin.

Nomzodlar o‘rtasida ovozlar soni teng bo‘lib qolgan va talabalar vakillari soni oshirilmagan hollarda teng ovoz olgan nomzodlar o‘rtasida qura tashlash orqali saylangan nomzod(lar) aniqlanadi.

Talabalarning fakultet va sho‘ba darajasidagi vakillari vazifalarini bajarish uchun tegishli tartibda fakultet-talabalar va sho‘ba-talabalar qo‘mitalariga a’zolikka qabul qilinadilar hamda uning majlislarida ishtirok etadilar.

Talabalarning fakultet va sho‘ba darajasidagi vakilining vazifalari profili mazkur nizomning 2-ilovasida batafsil tarzda berilgan.

17. **Fakultet va talabalar qo‘mitasi.** Fakultet dekani talabalarning ta’lim olish tajribasiga daxl etuvchi masalalarni muhokama etish va tegishli choralar ko‘rish uchun talabalarning vakillari bilan uchrashadi.

Fakultet va talabalar qo‘mitasiga talabalarning a’zoligi quyidagi tartibda tashkil etiladi:

bakalavr ta’lim dasturlari bo‘yicha fakultetga tegishli har bir ta’lim dasturi bo‘yicha alohida hamda har bir kursdan uch nafargacha talaba, jami o‘n ikki nafargacha talabadan iborat tarkibda;

magistratura ta’lim dasturi bo‘yicha yagona hamda har bir magistratura ta’lim dasturi bo‘yicha tahsil olayotgan bir nafar magistratura talabasidan iborat tarkibda.

Fakultet va talabalar qo‘mitasi yig‘ilishi har o‘quv yilining noyabr oyi oxirgi haftasida va aprel oyi birinchi haftasida o‘tkaziladi.

Fakultet dekani yig‘ilish bayonnomasini yurtilishini tashkil etishga mas’uldir.

17[1]. Qo‘shma ta’lim dasturlari talabalar qo‘mitasi Qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘limi huzurida tuziladi.

Zarur hollarda, mazmunan o‘xshash va/yoki vaqt zonalari bir-biriga yaqin bo‘lgan bir nechta qo‘shma ta’lim dasturlari uchun yagona talabalar qo‘mitasi tuzilishi mumkin.

Qo‘shma ta’lim dasturi bo'yicha vakil qo'shma ta'lim dasturining har bir kursi bo‘yicha ellik nafar talabaga bir nafar nisbatda belgilangan umumiy tartib asosida saylanadi.

18**. Sho‘ba va talabalar qo‘mitasi.** Sho‘ba-talabalar qo‘mitasi bakalavr ta’lim dasturlari bo‘yicha tashkil etiladi. Fakultet-talabalar qo‘mitasiga saylangan talabalarning vakillari tegishli fakultet kengashlari tomonidan oktabr oyining ikkinchi haftasida sho‘ba va talabalar qo‘mitalariga taqsimlanadilar.

Sho‘ba professor-o‘qituvchilari ta’lim olish tajribasiga daxl etuvchi masalalarni muhokama etish va tegishli choralar ko‘rish uchun talabalarning vakillari bilan uchrashadilar.

Sho‘ba va talabalar qo‘mitasi yig‘ilishi har o‘quv yilining noyabr oyi ikkinchi haftasida va mart oyi oxirgi haftasida o‘tkaziladi.

Sho‘ba mudiri yig‘ilish bayonnomasini yurtilishini tashkil etishga mas’uldir.

19. **Universitet kengashlari va qo‘mitalariga talabalarning a’zoligi.** Fakultet va talabalar va Sho‘ba va talabalar qo‘mitalariga qo‘shimcha tarzda talabalar universitetning barcha kengashlari va tegishli komissiyalari, xususan, Universitet kengashi, Akademik halollik qo‘mitasi, Tadqiqot qo‘mitasi, O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi, Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi, Sifatni ta’minlash qo‘mitasi, O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi a’zolari hisoblanadi. Mazkur kollegial organlarning asmiy yig‘ilishlari talabalar uchun ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq masalalarda ulardan oldindan maslahat olish va talabalarga o‘zlari istagan vaqtda muammolarni ko‘tarishga imkoniyat beradi.

Bunda ayrim qo‘mitalar talabalarning fikr-mulohazalarini ko‘rib chiqishda alohida ahamiyatga ega. Xususan, O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi talabalarning akademik yo‘nalishga daxldor tajribalari, Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi talabalarning o‘quv rejadan tashqari mashg‘ulot va tadbirlar bilan bog‘liq tajribalariga doir masalalarni muhokama etadi. Sifatni ta’minlash qo‘mitasi universitetda sifatni ta’minlash jarayonida talabalarning ishtirokini ta’minlash ustidan monitoring olib boradi. Mazkur qo‘mitalarning Universitet kengashiga hisob beradi hamda universitetda talabalarning tegishli yo‘nalishlar bilan bog‘liq sifatni ta’minlashdagi ishtirokini ta’minlaydi. Mazkur kengashlarning vazifalari ular faoliyatini tartibga soladigan nizomlarda belgilanadi.

Talabalarning vakillari shuningdek universitetda tashkil etiladigan komissiyalarning a’zosi bo‘lishi va universitet manfaatlari uchun tegishli tashabbuslar va strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlar yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin.

20. Universitet talabalar vakilligidan tashqari boshqa bir qator mexanizmlar orqali talabalarni sifatni ta’minlsah jarayoniga jalb etadi. Xususan, bu quyidagilar orqali ta’minlanadi.

Talabalar tomonidan ta’lim dasturlari va modullarning o‘qitilishini baholash. Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqida nizomda qayd etilganidek, universitet talabalarning ta’lim dasturlari va modular bo‘yicha fikr-mulohazalarini so‘rovlar o‘tkazish orqali oladi. Baholash natijalari ta’lim dasturi yoki ta’lim dasturi yo‘nalishi rahbari yetakchiligida hamda ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar tomonidan shakllantiriladigan yillik monitoring hisobotida ko‘rib chiqiladi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi va Elektron universitet bo‘limi ta’lim dasturi va modullarning o‘qitilishini baholash bo‘yicha so‘rovlarni o‘tkazishga mas’uldir.

Ta’lim dasturlari o‘quv yilining yakunida, modullarni o‘qitilishini baholash har semestr yakunida yakuniy nazorat boshlanadigan sanagacha bo‘lgan muddatda o‘tkaziladi.

Talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan so‘rovlar. Universitetda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar bo‘yicha talabalar o‘rtasida ularning fikr-mulohazalarini olish uchun muntazam va maqsadli so‘rovlar o‘tkaziladi. Ushbu so‘rovlar orqali olingan fikr-mulohazalar turli darajalarda, shu jumladan, ta’lim dasturlari, fakultetlar va universitet miqyosida ko‘rib chiqiladi.

Ta’lim dasturini yaratish va tasdiqlashda talabalarning ishtiroki. Universitet ta’lim dasturlarini yaratish va tasdiqlash haqidagi nizom talabiga binoan talabalar yangi ta’lim dasturini yaratish va tasdqilash jarayonida faol ishtirok etadilar. Ularning ehtimoliy ta’lim dasturlari haqidagi qarashlari ichki rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Davriy monitoring jarayonida ishtirok etish. Toshkent davlat yuridik universitetining yillik va davriy monitoringi haqidagi nizomga binoan ta’lim dasturlari kamida har besh yilda bir marotaba davriy monitoringdan o‘tkaziladi. Davriy monitoring guruhi tarkibiga talaba ham kiritiladi. Davriy monitoring jarayonida guruh boshqa talabalar va ta’lim dasturi bitiruvchilari bilan uchrashadi.

Boshqa mexanizmlar. Yuqorida qayd etilgan mexanizmlardan tashqari universitet xodimlari va tarkibiy tuzilmalari maqsadga muvofiq hollarda talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘ishning boshqa qo‘shimcha mexanizmlaridan ham foydalanishlari mumkin. Bu mexanizmlarga fokus guruhlar tashkil etish, elektron xatlar orqali maslahatlar olish, Telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali muntazam tarzda rasmiy va norasmiy fikr-mulohazalarni to‘playdi.

VI bob. Talabalar bilan muloqot olib borish va qayta aloqa (feedback) sikli

21. Talabalarning sifatni ta’minalshda samarli ishtiroki ular bilan mustahkam muloqot olib borish va qayta aloqa (feedback) siklini muvaffaqiyatli amalga oshirishni talab etadi. Bu jarayonda universitet talabalar va talabalar vakillarining fikr-mulohazalarini tinglaydi, ularni ko‘rib chiqadi va ularga javob qaytaradi. Ushbu talab mazkur nizomda belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi (3-ilova). Xususan:

xodimlar mazkur nizomning ijrosini ta’minlash uchun unda belgilangan prinsiplarning mohiyatini tushunish va talabalarga fakultet, sho‘ba hamda ta’lim dasturlariga doir ma’lumotlarni yetkazishda muhim o‘ringa ega ekanliklarini tushunib yetishga qaratilgan treningda ishtirok etadilar;

tegishli kengash va qo‘mitalar majlisi bayonnomalari talabalar va xodimlarga tarqatiladi;

muhim qarorlar va chora-tadbirlar haqida turli kanallar, shu jumladan vebsayt va Telegram ijtimoiy tarmog‘ida ma’lumot beriladi;

maqsadga muvofiq bo‘lgan hollarda talabalar vakillari tomonidan universitet majlislarida qilingan muhokamalar va ko‘rilgan chora-tadbirlarning mohiyati talabalarga yetkaziladi.

VII bob. Talabalarning sifatni ta’minlashdagi ishtiroki samaradorligini monitoring qilish

22. Mazkur nizom bilan belgilangan mexanizmlarning ishlashi va samaradorligi universitetning turli bo‘g‘inlarida monitoring qilib boriladi.

Dekanlar va professor-o‘qituvchilar nizomning tegishli tarkibiy tuzilmalarida qo‘llanishini ta’minlaydilar. Ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar talabalar tomonidan bildirilgan vazifalariga daxldor bo‘lgan fikr-mulohazalarni ko‘rib chiqishga mas’uldirlar.

23. Universitet kengashi universitet miqyosida sifatni ta’minlashda talabalarning ishtirokini ta’minlashga umumiy mas’uldir. Sifatni ta’minlash kengashi Univesitet kengashi nomidan mazkur nizomning ijrosini tahlil etadi va Universitet kengashiga axborot kiritadi.

VIII bob. Yakuniy qoidalar

24. Mazkur nizom kamida uch yilda bir marotaba qayta ko‘rib chiqiladi hamda zarur bo‘lganda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritiladi.

25. Universitet xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mavjud amaliyotni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida tegishli mexanizmlarni oliy ta’lim bo‘yicha tashkilotlar, shu jumladan Buyuk Britaniyaning Oliy ta’limda sifat kafolati agentligining quyidagi tavsiyalari hamda Yevropa oliy ta’lim makonida sifat kafolati bo‘yicha standartlar va yo‘riqnomalari bilan solishitib boradi.

Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). (2015). www.enqa.eu

UK Quality Code for Higher Education, Advice and Guidance: Student Engagement https://www.qaa.ac.uk/docs/qaa/quality-code/advice-and-guidance-student-engagement.pdf?sfvrsn=6224c181_3

UK Quality Code for Higher Education 2024 https://www.qaa.ac.uk/docs/qaa/quality-code/uk-quality-code-for-higher-education-2024.pdf?sfvrsn=19a5b881_32

UK Quality Code for Higher Education 2024 – Sector Agreed Principles https://www.qaa.ac.uk/docs/qaa/quality-code/uk-quality-code-for-higher-education-2024-sector-agreed-principles.pdf?sfvrsn=6da5b881_11

Quest for Quality for Students: Student Handbook on Quality Assurance https://www.sparqs.ac.uk/upfiles/quest%20handbook%20online.pdf

Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarini sifatni ta’minlash jarayoniga jalb etish haqidagi nizomga
1-ilova

Talabalarning sifatni ta’minlashdagi ishtiroki bilan bog‘liq vazifalar taqsimoti

Subyektlar	Vazifalar
Talabalar va talabalarning vakillari	• Ochiq va konstruktiv fikr-mulohaza bildirish; • fikr-mulohazani hurmat bilan hamda to‘g‘ri niyatda taqdim etish.
Talabalar assotsiatsiyasi	• Talabalar vakillarini belgilangan vazifalarni bajarishga tayyorlashda universitet xodimlariga ko‘maklashish; • universitet miqyosida talabalarning fikr-mulohazalari sifatni ta’minlash jarayonlarida inobatga olinishini ta’minlash.
Rektor	• Talabalarning ta’lim olish jarayoni va boshqa masalalarga doir masalalarni muhokama etish uchun Talabalar assotsiatsiyasi vakillari bilan har semestr yakunida uchrashish.
Dekanlar	• Fakultet va talabalar qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish; • nizomda belgilangan prinsiplarga rioya qilgan holda talabalarning ta’lim dasturi va fakultet darajasidagi fikr-mulohazalarini yig‘ish bo‘yicha fakultetning yondashuvini ishlab chiqish; • talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘ish modelini yaratishga talabalarni jalb etish; • Fakultet va talabalar qo‘mitasi va Fakultet kengashiga talabalardan fikr-mulohaza olishga nisbatan fakultetning yondashuvi haqida ma’lumot berish, yondashuvni birgalikda muhokama etish va uni joriy etish bo‘yicha chora ko‘rish; • barcha talabalarga ta’lim dasturi, sho‘ba va fakultet darajasidagi fikr-mulohazalarni berish imkoniyatini ta’minlash; • fakultet darajasidagi talabalar vakillari bilan samarali ish muhitini o‘rnatish; • Fakultet va talabalar qo‘mitasi yig‘ilishi bayonnomlarini yuritilishini ta’minlash.
Sho‘ba mudiri	• Sho‘ba va talabalar qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish; • Sho‘ba va darajasidagi talabalar vakillari bilan samarali ish muhitini o‘rnatish; • masalani tegishliligiga ko‘ra universitetning yuqori kollegial tuzilmalariga kiritish; • Sho‘ba va talabalar qo‘mitasi yig‘ilishi bayonnomlarini yuritilishini ta’minlash.
Sho‘ba va talabalar qo‘mitasi	• Talabalarga o‘quv yili davomida kamida ikki marotaba (semestr o‘rtasida) ta’lim dasturining o‘qitilishi

	bo‘yicha fikr-mulohazalarini bildirishga imkon berish; • barcha talabalarga vakillari orqali fikr-mulohazalarini yetkazish imkoniyatini ta’minlash; • talabalarga ular ta’lim dasturi bo‘yicha fikr-mulohzalarini qanday yetkazishlarini muhokama qilish va tushuntirish; • talabalarning fikr-mulohazalarini tinglash va talabalarga ularning fikr-mulohazalari asosida qanday chora ko‘rilgani va qaysi fikr mulohazalari nima uchun inobatga olinmaganini tushunatirish.
Fakultetva talabalar qo‘mitasi	• Talabalarga o‘quv yili davomida kamida ikki marotaba (semestr o‘rtasida) fakultet doirasida orttirgan tajribalari yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirishga imkon berish; • barcha talabalarga fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyatini ta’minlash; • talabalardan fikr-mulohaza olish modelini talabalar ishtirokida ishlab chiqish va talabalar tomonidan fakultetga taalluqli fikr-mulohzalar qanday taqdim etilishini ularga tushuntirish; • talabalarning fikr-mulohazalarini tinglash va talabalarga ularning fikr-mulohazalari asosida qanday chora ko‘rilgani va qaysi fikr- mulohazalari yuzasidan chora ko‘rilmaganini tushuntirish.
O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi	• Og‘zaki va yozma shakllarda kiritilgan axborotni (o‘zining so‘roviga binoan yoki boshqa kengashlar tomonidan kiritilgan) ko‘rib chiqish va ular hamda talabalarning akademik yo‘nalishga daxldor fikr-mulohazalari asosida chora-tadbirlarni amalga oshirish.
Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi	• Og‘zaki va yozma shakllarda kiritilgan axborotni (o‘zining so‘roviga binoan yoki boshqa kengashlar tomonidan kiritilgan yoki rahbariyat tomonidan yo‘naltirilgan) ko‘rib chiqish, ular hamda talabalarning o‘quv rejadan tashqari mashg‘uloti bilan bog‘liq fikr-mulohazalari asosida chora-tadbirlarni amalga oshirish.
Sifatni ta’minlash qo‘mitasi	• Talabalar uchun fikr-mulohazalarni bildirishning turli usullari amal qilishini ta’minlash; • yillik monitoring hisobotlarida talabalarning ovozi mazkur nizomga muvofiq holda inobatga olinganligiga ishonch hosil qilish maqsadida ularni ko‘rib chiqish; • sifatni ta’minlash jarayonida talabalarning ishtirokiga doir ijobiy tajribalar va resurslarni ulashish imkoniyatini yaratish; • universitetda sifatni ta’minlash jarayonida talabalarning ishtiroki bilan bog‘liq takomillashtirish kerak masalalar yuzasidan tavsiyalar berish.

nizomga
2-ilova

Talabalarning fakultet va sho‘ba darajasidagi vakilining vazifalari profili

Ushbu profil talabalarning fakultet va sho‘balardagi vakillari uchun ularning tegishli tizimdagi ishtiroki borasida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari uchun ishlab chiqilgan. Profilda talabalar vakillarining vazifaalari, ko‘nikmalari va ushbu vazifani bajarishning afzallik jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Rol: Talabalarning fakultet va sho‘badagi vakili

Imkoniyat: Toshkent davlat yuridik universitetida fakultet va Sho‘badagi talabalar vakili talabalarning ta’lim dasturi bilan bog‘liq tajribalariga ta’sir qiladigan muammolarni boshqa talabalar va talabalarning vakillari bilan hamkorlikda tushunish va hal etish uchun fakultet va sho‘ba miqyosida talabalar vakilligini amalga oshiradi.

Talabalarning fakultet va sho‘ba darajasidagi vakillari talabalarning fikr-mulohzalarini yig‘adilar, fakultet-talabalar va sho‘ba va talabalar qo‘mitalarida ularni muhokma qilishda ishtirok etadilar, ularni Talabalar assotsiatsiyasi hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga taqdim etadilar, ularga muayyan vazifalarni bajarishga ko‘maklashadilar hamda turli tadbir va yig‘ilishlarda ishtirok etadilar.

Asosiy vazifalar:

- Talabalar vakillari uchun majburiy yo‘naltirish treninglarda ishtirok etish;
- talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘ish va Sho‘ba, fakultet va Talabalar assotsiatsiyasiga yetkazish;
- Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi, Yoshlar masalari va sportni ommalashtirish boshqarmasiga ma’muriy vazifalarni bajarishga ko‘maklashish, shu jumladan universitetda talabalarning vakilligiga doir boxabarlikni oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;
- o‘zgarishlarni qayd etib borish va talabalarga muhim yangiliklarni yetkazish;
- tegishli dekan, kefedra mudirlari va universitetning boshqa xodimlari bilan samarali munosabatni o‘rnatish;
- Ma’naviyat va mao‘quv yili yakunida talabalar vakillari o‘rtasida o‘tkaziladigan so‘rovda ishtirok etish;
- talabalar vakilligiga doir yangiliklardan boxabar bo‘lish.

Majburiyatlar:

- talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘ish uchun talabalar bilan yig‘ilishlar o‘tkazish (fikr-mulohazalar so‘rovlar o‘tkazish, elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali olinishi mumkin);
- Sho‘ba va talabalar va fakultet-talabalar qo‘mitasi hamda boshqa yuqori kollegial tuzilmalar tarkibida ishtirok etish;
- raqamli va bosma ommaviy axborot vositalari uchun olib borilayotgan ishlar tafsiloti haqida maqolalar yozish;
- yo‘naltirish treninglarida va rivojlanishga qaratilgan davomli dasturlarda ishtirok etish.

Manfaatli jihatlar:

- karyera imkoniyatlari bilan bog‘liq tajriba, shu jumladan kengashlarda ishtirok etish va loyihalarni yuritishga doir tajriba orttirish;
- Universitet ichki hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

Rivojlantirishga qaratilgan ko‘nikmalar:

- yozma va og‘zaki muloqot;
- jamoada ishlash va liderlik;
- tashkiliy va taym menejment;

- marketing va vakolatlar;
- qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilish;
- madaniy va jamoaviy ehtiyojlardan boxabarlik;
- IT and raqamlar bilan ishlash;
- netvorking and kreativlik;
- loyiha menejmenti.

Trening va qo‘llab-quvvatlash:
Talabalarning vakillari tegishli tizimdagi ishtiroki, muloqot olib borish, fikr-mulohazalarni yig‘ish va vakillik qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan treningda ishtirok etadilar. Universitet o‘quv yili davomida talabalar vakillarini muntazam qo‘llab-quvvatlab boradi. Ularga universitet faoliyatini tushunish va karyera uchun zarur ko‘nikmlarni shakllantirishga qaratilgan qo‘shimcha trening taklif etiladi.

Vazifalarni bajaraish uchun ajratiladigan vaqt:
- Moslashuvchan: talabalar fikr-mulohzalarini yig‘ish va majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq yig‘ilishlarda ishtirok etish;
- Aniq belgilangan: o‘quv yili davomida jami taxminan 20 soatdan iborat yig‘ilishlarda ishtirok etish:
    - har o‘quv yilida bir marotaba yo‘naltirish treningida ishtirok etish.
    - Sho‘ba-talabalar va fakultet-talabalar qo‘mitalari yig‘ilishlarida ishtirok etish.

Malaka talablari: Rasmiy malaka talablari mavjud emas. Talabalar vakilligiga qiziqish va ishtiyoq hamda universitetda talabalarning ta’lim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga hissa qo‘shishga sadoqatli bo‘lishi zarur. Talabalar vakili bo‘lmoqchi bo‘lgan talabagor mativatsion xat taqdim etishi kerak.

Vakillik lavozimini egallash usuli: fakultet miqyosida ta’lim dasturining kurslari kesimida saylanadi.

Joy: barcha majlislar universitet yoki onlayn tartibda o‘tkaziladi.

Javobgar: Fakultet talabalari oldida javobgar.

Hamkorlikda ishlaydi:
- talabalar;
- boshqa talabalarning vakillari;
- dekanlar;
- Ma’naviyat va ma’rifat markazi;
- Transformatsiya bo‘limi;
- Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi.

Qo‘shimcha ma’lumot uchun murojaat qiling:
Botirjon Qosimov
kosimov.botirjon87@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarini sifatni ta’minlash jarayoniga jalb etish haqidagi nizomga
3-ilova

Talabalar bilan muloqot olib borish va qayta aloqa (feedback) sikli

